

Toshkent shahar hokimi
Umurzakov Shavkat Buranovichning
hokimlik jamoalariga
M U R O J A A T I

Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biri ekanligi, ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib kelayotganligini yaxshi bilasiz.

Shu bois, unga qarshi kurash xalqaro hamjamiyat doirasida ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgani bejiz emas.

So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida barcha sohalarda keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida "Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur"ligini, qayta-qayta tilga oladilar.

Korrupsiya va poraxo'rlik jamiyat barqarorligining muhim asosi bo'lgan ijtimoiy va huquqiy adolatning yo'qolishiga olib keladi. Mamlakatimiz mustaqiligi, xalqimiz farovonligi, yurtimiz rivoji va gullab yashnashi va obod bo'lishi har bir fuqarolarda milliy g'urning qay darajada shakllanganligiga bog'liq.

Bu kabi shaxslar eng avvalo pora olish va berish illatidan xalos bo'lishi, bir so'z bilan aytganda "halollik vaksinasi" bilan emlanishi zarur.

Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik tamoyiliga amal qilgan holda hokimlikning barcha xodimlariga bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki vositachilar orqali har qanday korrupsiyaviy harakatlarda ishtirok etish qat'iy man etiladi, ya'ni, ular o'z mansab va xizmat mavqeidan o'z manfaati yo'lida noqonuniy foydalanishi, shuningdek xizmat mavqeini suiiste'mol qilish qat'iy tartibda taqiqlanadi va qonuniy javobgarlikka tortiladi.

Hokimlik xodimlari odob-axloq qoidalariga ham qat'iy rioya qilishlari, shuningdek hokimlik obro'siga, qadr-qimmatiga, nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki uning qonuniy faoliyatiga, xolisligiga, hisobdorligiga, ochiqligiga va shaffofligiga shubha tug'diradigan xatti-

harakatlardan o'zlarini tiyishga majburdirlar.

Shuningdek, xodimlar hokimlik manfaatlariga zid keladigan yoki zid kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatlar bilan bog'liq korrupsiyaviy holatlar yuzasidan Toshkent shahar hokimligining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limini xabardor qilishlari lozim.

Sodir etilgan har qanday korrupsiyaviy jinoyat sirligicha qolmaydi, albatta oshkor bo'ladi.

Shuning uchun, men sizlarni ogohlantirmoqchiman, har qanday jinoyat uchun jazo muqarrar, buni har birimiz teran his qilishimiz zarur.

Hokimlik xodimlari xushmuomala, iltifotli, odobli, e'tiborli va qalbi toza, ko'ngli ochiq, aql-zakovat sohibi bo'lishi, muhim ahamiyatga ega. Ular fuqarolar va hamkasblari bilan samimiy munosabatda bo'lishi, bir-birini hurmat qilishi, ish yuzasidan qo'pollik qilmasligi, o'z sha'ni va boshqalar qadr-qimmatini qadrlashi lozim.

Siz-u biz, hammamiz birgalikda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib boraylik!

Toshkent shahar hokimi
Umurzakov Shavkat Buranovich